

## KREATIV YONDASHUVNING O'SMIRLAR IJTIMOYILASHUVIDAGI ROLINI O'RGANISH VA UNI TADQIQ ETISH TAMOYILLARI

<sup>1</sup>Maxmatqulov Ilyos Sadulla o'g'li

Leytenant Urgut tuman IIB JXX HPB VYBIG VYMB inspektor psixologi,

<sup>2</sup>Olimboyev Abduxoliq Mannon o'g'li

Leytenant Urgut tuman IIB JXX HPB VYBIG VYMB inspektor psixologi,

<sup>3</sup>Sharipov Toxir Davlatovich

Leytenant Urgut tuman IIB JXX HPB VYBIG VYMB inspektor psixologi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7485224>

**Annotatsiya:** Jahonda ta'lim va tarbiya mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, fan, texnika, madaniyatning obyektiv talablariga asoslanadi. Ta'lim va tarbiya mazmuni tabiat, jamiyat, inson va uning mehnati to'g'risida ijtimoiy tartibga mos keladigan bilimlar tizimi sifatida tushuniladi, ularning o'zlashtirilishi yosh shaxsning aqliy, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy tarbiyasini ta'minlaydi.

**Tayanch so'z va iboralar:** Kreativlik, internet, sun'iy yo'ldoshlar, "smart house", innovatsiya, ilk o'smirlik, katta o'smirlik.

Xalqoro miqyosda hozirgi kunda dunyodagi yetakchi kompaniyalarning ishga olish talabi kreativ fikrlay olish yangiliklar yaratishga qodirlik ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish uchun ularga kreativ madaniyatni o'rgatish lozim va biz buni maktabgacha bo'lgan ta'limda va xalq ta'limida isloh qilishimiz maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "...Yosh avlodni barkamol, ma'naviy va jismonan sog'lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalash, ularni mustakil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", degan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning yaratuvchisi sifatida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan bu borada bir qator ishlar olib borildi. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Makur konsepsiyaga binoan O'zbekistonning 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash

bo'yicha xalqaro dastur reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish belgilangan.

Turmush tarzining har bir jabhasida o'sish va rivojlanish avj olayotgan asrda yashayotgan ekanmiz, oldimizda bir ustuvor vazifa paydo bo'ladi, ya'ni yangilik muallifiga aylanish, innovatsiya yaratish, ilm fan ravnaqiga hissa qo'shish va davlatimizni rivojlangan davlatlar bilan raqobat qila oladigan texnikalar va g'oyalar bilan boyitish. Bunda bizga kreativ fikrlash qobiliyati yordam beradi.

Kreativlik bu xattoki bir asr oldin odamlar tasavvur ham eta olmagan kompyuter va internet, sun'iy yo'ldoshlar, "smart house" deb nomlanayotgan uylar birgina tugmachaning bosilishi bilan sizga barcha qulayliklarni yaratadigan jihozlardan tortib fazoda yashayotgan yer ahligacha bo'lgan barcha narsalardir. Kreativlik yangi imyoniyatlarni yaratish, innovatsiya, muammoli masalalarga o'zgacha yechim demakdir. Kreativlik muammolarni yechishning yuragi hisoblanadi. Har doim muammolar mavjud. Ular o'qishda yoki ish jarayonida paydo bo'ladi. Agar biz o'quvchilarda ijodkorlik mahoratini rivojlantira olsak, bu dutun dunyo uchun maqsadli ish bo'ladi.

Yangiliklar bilim va g'oyaning o'zaro kombinatsiyasidan hosil bo'ladi. O'qish va o'rganish bu kundalik vazifa hisoblansada faqat uning o'zigina hech narsa yaratolmaydi. Chunki tasavvur bilimdan kuchliroq.

O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishning eng samarali yo'li pedagogning ular uchun model rolini o'ynab berishidir. Masalan kelajakka qiziqishni uyg'otish va orzu va maqsadli hayotni tashkil qilish uchun pedagog o'z orzulari haqida gapirib berishi, orzusidagi uyni, orzusidagi kasbni rasmini chizib ko'rsatishi va unga erishish uchun hozirda qanday ishlar qilayotganligini aytib berishi mumkin. Nutqining oxirida "sizchi?" savolining berilishining o'zi o'quvchining tasavvur olamiga olib ketadi. Pedagog yangi g'oyalarni qadrlash va xatolarni ham nishonlay olsa u o'quvchilarida kreativ fikrlash madaniyatini rivojlantira oladi.

Barcha ishning boshlanishi mashaqqat va muvaffaqiyatsizliklardan iboratligini hisobga olgan holda biz e'tibor berishimiz lozim bo'lgan yana bir jabha paydo bo'adi. Ya'ni muvaffaqiyatsizlikdan keyin va qiyinchilikda ham o'z erishmoqchi bo'lgan maqsadidan qaytmaslikni, ulardan saboq olishni o'rgatishdir. O'z ixtirolari bilan mashhur kashfiyotchi Tomas Edison elektr lampani yaratish uchun qilgan izlanishlari mobaynida qariyb 2000 marotaba muvaffaqiyatsizlikka uchragan va uning quyidagi fikri ilm ahliga o'ziga xos motivatsiya vazifasini bajarib kelmoqda: "Natija. Men ko'p natijaga ega bo'ldim! Bir necha minglab narsalar lampa yasash uchun ish bermasligini bildim!" .

Hozirgi kunda dunyodagi yetakchi kompaniyalarning ishga olish talabi kreativ fikrlay olish yangiliklar yaratishga qodirlik ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish uchun ularga kreativ madaniyatni o'rgatish lozim va biz buni maktabgacha bo'lgan ta'limda va xalq ta'limida isloh qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ijodiy fikrlash uchun har kuni bir oz vaqt ajratish, ko'proq fikrlash va paydo bo'lgan g'oyalarni amaliyotda sinab ko'rish yetarlidir.

Shaxsning eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichi o'smirlikdir. Ilk o'smirlik 11-13 yoshni, katta o'smirlik 14-15 yoshlarni o'z ichiga oladi. O'smirlik birinchi navbatda oganizm taraqqiyotidagi shiddat va notekslik bilan xarakterlanib, bu davrda tananing intensiv tarzda rivojlanishi va qotishi ro'y beradi. Bu davrda ayniqsa diqqat, xotira, tafakkur jarayonlari rivojlanadi. Bu davrda bola mustaqil fikrlashga intila boradi. Chunki, bu davrda u ko'proq o'z o'y fikrlari dunyosini mushohada qilish, olam va uning sirlarini bilishga va nazariy bilimlarni oshirishga bo'lgan ehtiyoj oshadi. Buning sababi bolada o'ziga xos "kattalik" xissining paydo bo'lishi bo'lib, bu uning so'zlashida va fikrlashida ham ifodalanadi. O'smiringa yetarlicha berilgan mustaqillik muhiti va to'g'ri tashkil etilgan o'qish sharoitlari samimiylik muhitini yaratishi, o'smirning mustaqil fikrlashiga katta imkoniyatlar ochishi va undagi ijodiy tafakkurni rivojlantirishi mumkin. Qiziqishlar bilimlarni ongli, puxta va barqaror anglangan holda o'zlashtirishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, shaxsning qobiliyatini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunish va bilim saviyasini kengayishiga yordam beradi. Qiziqish motiv singari borliqning mo'jizakor tomonlarini bilishga, fan asoslarini egallashga, faoliyatning turli-tuman shakllariga ijodiy yondashishni vujudga keltirishga yordam beradi.

Ta'lim sohasidagi mutaxassis va psixologlarning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan bog'liq fikrlash jarayonlarida mashg'ul bo'lish deb tushunilgan kreativ fikrlash bir qator boshqa shaxsiy ko'nikmalarning ham rivojlanishiga olib keladi. Shular jumlasiga metakognitiv qobiliyat, insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o'zini yaxshiroq anglash ko'nikmalari, muammolarni hal qilish ko'nikmalari kiradi. Shu bilan birga shaxs kamoloti, ta'lim olishdagi muvaffaqiyati, kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va jamoatchilik orasidagi obro'si ham insonning kreativ fikrlash ko'nikmasiga bog'liq.

Kreativ fikrlashda ta'limni asosiy vazifasi o'quvchida u yashayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun uning buguni va kelajagida kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishidir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi lozim bo'lgan muhim ko'nikma bolib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan

davrga xos ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko'maklashadi. Kreativlik bugungi o'quvchiga hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini yaratadi. O'smirlarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori talablari bilan cheklanib qolmay, u yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan, ijodiy iste'dodlarni kashf etish muhim ahamiyatga ega. Kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab quvvatlaydi.

O'smirlarning qiziquvchanligi ularning ta'lim jarayonida qo'l keladi. Ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Boshqa ko'nikmalar kabi, kreativlik ham amaliy va yo'naltirilgan yondashuv orqali rivojlantirilishi mumkin. Barcha sohalarda kreativ kreativ fikrlash mumkin. O'smirlar ta'limi va tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi shaxslar kreativ fikrlashni ajrata olishi va unga mos shart-sharoitlarni bilishlari va yoshlarga fikrlashda ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak.

Kreativ fikrlash endigina shakllanayotgan talqin bo'lib turgan bir paytda ancha keng hamda kreativlik tuzilmasi kuchli tadqiqotchilik an'anasiga ega bo'ladi. Demak, kreativlik – layoqat, jarayon va muhit o'rtasidagi o'zaro munosabat bo'lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo'lgan salmoqli mahsulotni yaratishidir.

Ijodiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish kreativ fikrlashni taqozo etadi, lekin shu bilan birga aqliy salohiyat, soha borasidagi bilim va san'atkorlik talanti kabi kengroq va maxsus ko'nikma va qobiliyatlar ham zarur bo'ladi. Masalan, san'at durdonalari yoki texnologik kashfiyotlarni yaratish bilan bog'liq buyuk ijodkorlikda kreativ fikrlashdan tashqari salmoqli talant, chuqur bilim, muayyan sohada tinimsiz mehnat hamda jamiyat tomonidan ushbu mahsulot qiymatga ega ekanligi haqidagi e'tirof ham talab etiladi. Aksincha, kichik yoxud kundalik kreativlik (masalan, fotojurnalda rasmlarni mahorat bilan joylashtirish; oziq - ovqat qoldiqlaridan yangi taomni hosil qilish yoki ishxonadagi murakkab muammoga ijodiy yechim topish kabi) ijodiy fikrlashga qodir deyarli barcha insonlarga zarurdir.

Tug'ma talantning ahamiyatini kamaytirish hamda takomillashtirish mumkin bo'lgan shaxsning kreativ fikrlash qobiliyatiga ko'proq urg'u berish maqsadida PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo'nalishining baholashi mana shu kichik kreativlik bilan bog'liq vazifalarga asosiy e'tiborni qaratadi. Kreativ fikrlashning

bu turi nafaqat insho yozish yoki rasm chizish kabi asosan ichki dunyoni aks ettirish talab qilinadigan ta'lim kontekstiga, balki g'oya berish masalalarini tahlil etish, jamiyatdagi muammolarni hal etishga aloqador bo'lgan kengroq sohalarga ham taalluqlidir. O'zbekiston 2022-yilda ilk bor qatnashishi kutilayotgan PISA xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligi bilan bir qatorda, kreativ fikrlashini ham baholaydi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish va baholash uchun avvalo bu domenning o'zini tushunish va uning ilmiy asoslarini tadqiq qilish lozim.

Maktabda tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati juda katta. Maktablar yoshlarga o'z iste'dodlarini, shu jumladan ijodiy qobiliyatlarini kashf etish, rivojlantirish va aniqlashda yordam beruvchi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maktablar bolalarni o'zlari yashaydigan jamiyatning bir qismi ekanliklari va uning rivojlanishiga hissa qoshadigan ijodiy imkoniyatlarga ega ekanliklarini his qilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ yoshlar passiv ravishda tinglamaydilar va o'zlashtirmaydilar. Ular izlanishadi, kashf qilishadi va muloqot qilishadi. Bu yoshlarni yanada faol jamiyat a'zosi sifatida namoyon bo'lishga yordam beradi, chegaradan tashqarida muloqot qilish imkonini beradi.

Ijodkorlik ta'limda qimmatlidir, chunki u kognitiv murakkablikni shakllantiradi. Ijod chuqur bilimga ega bo'lish va undan unumli foydalana bilishga tayanadi. Ijodiy bo'lish ma'lum bir mavzu yoki kontekstda mavjud bilim yoki ko'nikmalar to'plamidan qimmatli natijalarga erishish uchun yangi imkoniyatlarni sinab ko'rishni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham bilim va ko'nikmalarni oshiradi. U vaqt o'tishi bilan rivojlanadi va agar ijodiy jarayon odamlar kamida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan nuqtadan boshlansa, yanada muvaffaqiyatli bo'ladi.

O'z ichki tabiatini anglay bilish, unga amal qilgan holda harakat qilish o'zlikning namoyon bo'lishiga xosdir. Maslou kishilar o'zligining namoyon bo'lishi quyidagi xususiyatlarga ega degan xulosaga keladi: borliqni idrok etishning oliy darajada ekanligi; o'z-o'zi, boshqalar, atrof-muhitni amalda qanday bo'lsa, o'shanday qabul qila bilish; yuksak hozirjavoblik; muammoni hal etishga bo'lgan qobiliyatning ancha rivojlanganligi; o'zini chetga tortish, tanholikka moyillikning yaqqol namoyon bo'lishi; avtonomlik va qandaydir bitta madaniyatga moyillikka qarshilikning yorqinligi; idrokning va emosional reaksiyalarning sof va boy ekanligi; qayg'urganda jo'shqinlikning yuksak cho'qqida ekanligi; o'zini barcha insoniyat bilan birgalikda ekanligini kuchli tasavvur etish; shaxsiy munosabatlardagi o'zgarishlar; xarakterning farq qiluvchan demokratik tuzilmasi; ijodiy qobiliyatning yuksakligi; qadriyatlar tizimida muayyan o'zgarishlar; ijodkorlik (kreativlik)dir.

Real borliqni idrok etishning yuqori darajasi ongning tiniqligi, borliqni anglash usullarining bir-biriga mosligini anglatadi. Bunday xususiyatlarni bundan-da aniqroq tavsiflash mumkin bo'lmasa kerak. O'z-o'zini, boshqalar, atrof-muhitni amalda qanday bo'lsa, o'shanday qabul qila bilish qobiliyatning kuchliligi amalda atrofni sog'lom, hushyor, adekvat idrok etishdan iboratdir.

Hozirjavoblikning kuchliligi o'z shaxsini namoyon qilish, uni erkin ifodalash, nuqsonli xislatlardan xolilik, kulgi bo'lishdan, nazokatsizlikdan qo'rquv, va hokazolarda ifodalandi. Boshqacha qilib aytganda, bu soddalik, hayotga bo'lgan ishonchdir. Diqqatni muammoni hal etishga yuksak darajada jalb qilish qobiliyati qaysarlik, sobitqadamlik, muammoni boshqalar bilan birga va yakka holda hal eta bilish sa'i-harakatidir.

O'zini chetga tortish, tanholikka moyillikning yaqqolroq namoyon bo'lishi o'z ustida ishlash, o'z ruhini tarbiyalashni talab etadi. Agar inson dindor bo'lsa, u Xudo bilan muloqotga kirisha olishi lozim. Avtonomlik va qandaydir bitta madaniyatga oidlikka bo'lgan qarshilikning yorqinligi insonning barcha madaniyat buloqlaridan bahramand bo'lishida ifodalandi.

Sog'lom shaxs xulq-atvorini uning atrofida gilarining uning sog'ligi to'g'risidagi fikrlari, qarashlari, qo'llab-quvvatlashlari va qoidalari emas, balki insonning o'zida mavjud bo'lgan oliy manba bilan bo'ladigan muloqot, dialog natijasida hosil bo'ladigan axloq qoidasi belgilaydi va boshqaradi. Qisqasi, sog'lom shaxs psixikasini yuzsizlarcha uyat madaniyati emas, balki gunohni his eta bilish madaniyati asoslaydi. Idrokning sofligi va emosional reaksiyalarning boyligi insonning ana shular orasidan eng yaxshilarini tanlash imkonini beradi.

**Xulosa** qilib aytganda Kreativlik atamasi psixologiya sohasida nisbatan yangi tushuncha bo'lishiga qaramasdan ko'plab psixologlar, pedagogika sohasi vakillari, fiziologlar va nevrologlarning e'tiborini tortdi. XX asrning boshidan to hozirgi kungacha qariyb bir asr davomida ko'plab izlanishlar olib borildi. Globallashuv jarayoni o'rganilishini talab qilgan bu sohada olib borilgan ishlarning asosiy qismi Amerika olimlari xissasiga to'g'ri kelsada, bu butun dunyoga yoyilib olimlarning katta doirasini qamrab oldi. Kreativlik borasidagi eng nodir ishlar Guilford, Gardener, Edvard de Bono, Torrens, Rubenshteyn kabi olimlar tomonidan yaratildi va hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Tadqiqotlarga minglab talabalar va o'quvchi yoshlar jalb qilinib, bu tadqiqotlarda longityud, test, anketa metodlaridan foydalanildi.

Mamlakatimiz psixologiya sohasida ham kreativlik borasida izlanishlar olib borildi. E.G'oziyev, R.Mavlonova, N.Rahmonqulovalar o'z islarini yoritib bergan o'quv qo'llanmalari, maqolalar va kitoblar har bir foydalanuvchi uchun muhim

ahamiyat kasb etadi. Kreativlik hozirgi yosh kadrlarda namoyon bo'lishi lozim bo'lgan jihat, zamon talabidir.

Darhaqiqat, ta'lim sohasidagi mutaxassislar va psixologlarning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan bog'liq fikrlash jarayonlarida mashg'ul bo'lish deb tushunilgan kreativ fikrlash bir qator boshqa shaxsiy ko'nikmalarning ham rivojlanishiga olib keladi. Shular jumlasiga metakognitiv qobiliyat, insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o'zini yaxshiroq anglash ko'nikmalari, muammoni hal etish ko'nikmalari kiradi. Shu bilan birga, shaxs kamoloti, ta'lim olishdagi muvaffaqiyati, kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va jamoatchilik orasidagi obro'si ham insonning kreativ fikrlash ko'nikmasiga bog'liq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimova V.M. Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar. Psix. fan. dok. diss. - T.: ToshDU, 1994. - B.309.
2. Raximova K., Abdullayeva A. Tarbiyasi qiyin o'smirlar psixologiyasi.-Farg'ona, 2006.-92 b.
3. Tulaganova G D. Tarbiyasi qiyin o'smirlar. - Toshkent. "Universitet" nashriyoti. 2005.- 125 b.
4. Qodirov U. Yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari. - Toshkent, 2013. - 236 b